



Qayimova Maftuna Tursunovna,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot insituti xodimi

AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING TARIXIY VA NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etadigan omillardan biri – mehnat migratsiyasi haqida so'z boradi. Shuningdek, ayollar mehnat migratsiyasining tarixiy kelib chiqishi, zamonaviy ko'rinishlari, va rivojlanishiga ta'sir etgan omillar tahlil etilgan.*

Аннотация. *В статье говорится об одном из факторов, влияющих на социально-экономическое развитие страны – трудовой миграции. Также анализируются историческое происхождение, современные аспекты и факторы, влияющие на развитие женской трудовой миграции.*

Annotation. *The article talks about one of the factors influencing the socio-economic development of the country - labor migration. The historical origins, modern aspects and factors influencing the development of female labor migration are also analyzed.*

Tayanch so'zlar: *mehnat migratsiyasi, migrant ayollar, migratsiya omillari, xorijga chiqish ko'rsatkichlari.*

Ключевые слова: *трудовая миграция, женщины-мигранты, факторы миграции, показатели эмиграции.*

Key words: *labor migration, women migrants, migration factors, emigration rates.*

Kirish. Kishilik jamiyati paydo bo'libdiki, insoniyat turli sabablarga ko'ra o'zi yashab turgan makonidan boshqa joyga ko'chib o'tishga majbur bo'lgan. Bu jarayonlar fanda Migratsiya (lotincha migration – “ko'chaman, joyimni o'zgartiraman”) atamasi bilan tilga olinadi. Insonlarni ovqat izlab, tabiat inijliklari, iqlim o'zgarishi, turli urushlar sabab boshqa joyga ko'chishga majbur bo'lganlar. Tarixda shunday yirik migratsiyalar yuz berganki, natijada katta davlatlar, imperiyalar paydo bo'lishni boshlagan.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo ham tarixning eng qadimgi davrlaridan boshlab murakkab migratsiya jarayonlari jadal borgan hududlardan hisoblanadi. Antik va o'rta asrning boshlarida O'rta Osiyo jumladan, O'zbekiston Yevroosiyo materigida yuz bergan “Xalqlarning buyuk ko'chishi” davrining chorrahasiga aylandi. Bu davrda O'rta Osiyo hududida yirik qabilalarning ko'chish jarayoni kuchayadi. Aholining bir hududdan ikkinchi hududga ko'chishi butun tarixiy davrlar mobaynida shaklan ikki xil doimiy yoki vaqtinchalik ko'chish tarzida amalga oshirib kelingan.

Maqsad va uni asoslash. Bronza davrining oxirlarida O'rta Osiyoning o'troq aholisi sug'orma dehqonchilik madaniyatini va hunarmandchilik sirlarini yaxshigina egallagan edilar. Bu davrda asosan shimoliy hududlardan O'rta Osiyoga kirib kelgan ko'chmanchi chorvador qabilalar cho'l va dasht zonalariga joylasha boshladilar. Vaqtlar o'tishi bilan tubjoy aholining o'troq hayoti va dehqonchilikka asoslangan xo'jaligi chorvadorlarning turmush tarziga ham o'z ta'sirini ko'rsata boshlagan.

Globalashuv jarayonida mehnat migratsiyasi har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etadigan omillardan biriga aylangan. Mustaqillikning dastlabki yillari mamlakatdagi iqtisodiy tanglikning va ijtimoiy ziddiyatlardan himoyalaniishning asosiy vositasi – mehnat migratsiyasi hisoblangan. Mehnat migrantlarining xorijga chiqib mehnat qilishi orqali O'zbekistonga jo'natilgan pul o'tkazmalari, shuningdek, mamlakatda ishsizlikning kamayish kabi holatlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Dastlabki migratsiyalar insoniyatning ilk davrlarida amalga oshgan. Odamlar qishloq xo'jaligi va hayvonot dunyosiga bog'liq yashash joylarini o'zgartirishni boshlaganlar. Ayollar, asosan, oilani qo'llab-quvvatlash va resurslarni topish maqsadida migratsiya qilishgan. Ular ko'pincha o'z oilalari bilan birga ko'chib, yangi yerlar va resurslar izlashgan.

Xalqaro qonunlarda inson huquqlari bo'yicha bir qator muhim hujjatlari mavjud. Ulardan nafaqat fuqarolar, shuningdek, migrantlarga ham tegishli.

Bronza davrining oxirlarida O'rta Osiyoning o'troq aholisi sug'orma dehqonchilik madaniyatini va hunarmandchilik sirlarini yaxshigina egallagan edilar. Bu davrda asosan shimoliy hududlardan O'rta Osiyoga kirib kelgan ko'chmanchi chorvador qabilalar cho'l va dasht zonalariga joylasha boshladilar.

*Uy ishi ayol
ishchilarning
xalqaro
migratsiyasini yirik
Osiyo hududlarida
keng tarqalgan.
Ayollar ishchi
kuchi sifatida
uy ishlarida
yordam berishadi,
shuningdek,
qariyalarga
kundalik
yumushlarida
ko'mak beradi. Bu
jarayonlar katta
qismida Osiyo,
Lotin Amerikasi
hamda Afrikadan
ayollarning
migrant sifatida
ishtiroki
yetakchilik
qilmoqda.*

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tegishli hujjatlariga quyidagilar kiradi:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948-yil.
2. Barcha mehnat migrantlari va ularning oila azolarining huquqlarini himoya qilish xalqaro konvensiya 1990-yil.
3. Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish xalqaro konvensiya 1965-yil.
4. Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish konvensiya 1979-yil [1]

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Uy ishi ayol ishchilarning xalqaro migratsiyasini yirik Osiyo hududlarida keng tarqalgan. Ayollar ishchi kuchi sifatida uy ishlarida yordam berishadi, shuningdek, qariyalarga kundalik yumushlarida ko'mak beradi. Bu jarayonlar katta qismida Osiyo, Lotin Amerikasi hamda Afrikadan ayollarning migrant sifatida ishtiroki yetakchilik qilmoqda.

Chet elga kelgan migrant ayollar har doim ham mamlakatni tark etish paytida ularga taklif qilingan faoliyat bilan shug'ullanmaydilar. Xorijda ayollarini ish bilan ta'minlash turlarining quyidagicha tasnifini berish mumkin:

- davlat xizmatlari (mehmonxonalar, klinikalar, restoranlar, sotuvchilar, tozalovchilar va boshqa oddiy darajadagi ishchilar);
- uy xizmatlari (enagalar, oshpazlar, kasalga qarovchi hamshiralar, uy xizmatkori va hokazo);
- joylar (restoranlarda raqqosalar, shou-dasturlar ishtirokchilari va boshqalar);
- tibbiy va sog'lomlashtirish xizmatlari (massaj, sauna va boshqalar.);
- kasbiy bandlik (gid xizmatlari, saqlash);
- davlat va madaniy xizmatlar sektori (tarjimonlar, volontyorlik, turizm va boshqalar.);
- sanoat ishlab chiqarish (tikuvchilar, mayda ishlab chiqarishlar va boshqalar.) [2].

Xalqaro tashkilotlarning hisobotiga ko'ra, 2030-yilga kelib 575 million kishi qiyin sharoitda yashashi taxmin qilinmoqda. Hozirgi kunda ayollarning 10,3 foizi o'ta qashshoqlikda yashamoqda, ularning kunlik daromadi 2,15 dollarga teng. Shu sababli ishsizlik yuqori bo'lgan mintaqalarda ayollarni tegishli sohalarda o'qitib, xorijga yuborish maqsadga muvofiqdir [3].

Xalqaro mehnat migratsiyasining zamonaviy xususiyatlaridan biri bu uning feminizatsiyalashuvidir. Og'ir jismoniy mehnat talab qilmaydigan sohalarning, xususan, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishi va

bandlik tarkibining transformatsiyalashuvi kabi jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar, xususan, xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanishi global mehnat migratsiyasining muhim bir qismiga aylangan ayollar mehnat migratsiyasi shakllanishiga va rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bandlik tarkibidagi bunday transformatsiyalashuv bilan bir qatorda rivojlangan mamlakatlarda tug'ilish kamayishi va kishilarning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi ortishi qariyalar soni ko'payishiga va ularni parvarishlovchilarga, mazkur mamlakat aholisining moddiy farovonligi yaxshilanishi va ayollarning jamiyat hayotidagi ishtiroki faollashuvi esa, uy xizmatchilariga bo'lgan talabning ortishiga olib keldi. Ayollar mehnat migratsiyasining rivojlanishiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Tahlillarning ko'rsatishicha, Rossiyadan Qirg'izistonga yo'naltirilgan mehnat migratsiyasining 40% ini, Tojikiston va O'zbekistonda esa, 20%ga yaqinini ayollar mehnat migratsiyasi tashkil etadi (1-rasm).

Aholi migratsiyasi (O'zbekiston 2021y.)

Manba: <https://demografiya.uz/>



1-rasm. Aholi migratsiyasining yillar kesimidagi ko'rsatkichlari


2024-yilning may oyi holatiga ko'ra Respublikamizda jami 1 898 971 kishi xorijda mehnat faoliyatini olib bormoqda, shundan ayollar 549 212 nafarni (erkaklar 1 349 759) tashkil etadi. Raqamlar faqat qonuniy ishlab yurgan migrantlarga tegishli bo'lib, xorijdagi mehnat statistika agentliklari O'zbekistondagi bandlik vazirligi hisobotiga ko'ra hisoblab chiqilgan.

Hozirda Rossiya Federatsiyasida 55% vatandoshlarimiz mehnat qilmoqda. 2019-yilda bu ko'rsatkich 80 % teng bo'lgan, ya'ni vatandoshlarimizning aksariyati Rossiya hududlarida mehnat qilishgan.

Qozog'iston Respublikasida mehnat qilayotgan vatandoshlarimiz salmog'i jami migrantlarning 10,4% ini tashkil etadi, buning asosiy sababini iqtisodchi olimlar Qozog'istonda aholi jonboshiga to'g'ri keluvchi davomadning yuqoriligi¹ (2023-yilda YIM miqdori 260 mlrd dollar) deb hisoblashadi.

Shuningdek, geografik jihatdan qo'shni joylashuvning ta'siri ham ayollar migratsiyasida katta ahamiyatga egadir. Turkiyada mehnat qilayotgan vatandoshlarimiz 2016-yilda migratsiya siyosatiga boshqacha tus berila boshlagandan so'ng sezilarli darajada soni ortdi va jami migrantlarni 6,3% ini tashkil etdi. 2024-yil Turkiya statistika agentligi bergan ma'lumotlarga ko'ra mamlakatda 98 mingga yaqin O'zbek mehnat migrantlari bor².

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ayolllar mehnat migratsiyasining sabablari mamlakatlar kesimida farqlanadi. Masalan, tojikistonlik va qirg'izistonlik ayol mehnat migrantlari uchun daromad topish, oila qurish va shahsiy hayotini yo'lga qo'yish kabi omillar, boshqirdistonlik ayol migrantlar uchun esa, farzandlariga ta'lim va tarbiya berish, uy-joy qilish, qarzlarda qutilish, yaqin kishilarini davolatish uchun daromad topish kabi holatlar ularning boshqa mamlakatga borib ishlari uchun turtki bermoqda (2-rasm).



2-rasm. Dunyo bo'ylab jami ayol migrantlarning soni

¹ Источник: Finprom.kz (www.finprom.kz/).

² <https://en.goc.gov.tr/residence-permits> Turkiya hukumati migratsiya bo'sharmasi 2024-yil 08 avgust oyi ma'lumotiga asosan.

Empirik tadqiqotlarning natijasiga ko'ra, respondentlarning 84% i ayollar mehnat migratsiyasi ularning hayoti va karyerasi uchun ijobiy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlasa, respondentlarning 62,4% i esa mazkur jarayon retsiyent mamlakat va hududlarga ijobiy ahamiyat kasb etishini ta'kidlaganlar. 2021-yil holatiga ko'ra, dunyo bo'ylab migrantlar soni 281 million kishini, ularning 48% ini, ya'ni 135 milionini ayol migrantlar tashkil qiladi.

Dunyodagi 196 million mehnat migrantlarining 8-9% ini migrant uy xizmatchilari tashkil etgan. Bu ko'rsatkichni ayol migrantlar orasida ko'rsak, dunyodagi jami 70 million ayol migrantlarining 12,%ga yaqini, ya'ni 8,45 millionini ayol migrant uy xizmatchilariga to'g'ri keladi. Dunyo bo'ylab 67,2 million uy xizmatchilarining 17,2% ini ya'ni 11,5 millionini migrant uy xizmatchilari tashkil qiladi. Bu esa dunyo bo'ylab shaxsiy va uy xizmatlari uchun migrantlarga bo'lgan talabning yuqori ekanligini ko'rsatadi. Dunyo bo'ylab o'y xizmatchilarining 80% i yuqori daromadli mamlakatlarda joylashgan bo'lib, ular mazkur mamlakatlardagi jami migrantlarning 66% ini tashkil qiladi. Arab mamlakatlari, Shimoliy Amerika va Yevropa mintaqalarida jami migrant uy xizmatchilarining 52% i joylashgan. Mazkur mintaqalarda demografik jihatdan qarish jarayonlarining yuqori sur'atlarda o'sishi, parvarishga muhtoj kishilarning shaxsiy va uy xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj ortishiga olib kelmoqda. Xususan, dunyo bo'ylab uy xizmatchilarining 81% ini ayollar tashkil qilsa, migrant uy xizmatchilarining 73% ini ayollar tashkil qiladi.

1-jadval

Dunyo mintaqalarida jami migrantlar tarkibida ayol migrant uy xizmatchilarining ulushi

Dunyo mintaqalarida jami migrantlar tarkibida ayol migrant uy xizmatchilarining ulushi	
Mintaqa	Jami migrantlar tarkibidagi ayol migrant uy xizmatchilarining ulushi%
Shimoliy Afrika	23,0
Sub-saxro Afrika	9,4
Lotin Amerikasi	35,3
Shimoliy Amerika	3,3
Janubiy, Shimoliy Yevropa	10,6
Sharqiy Yevropa	0,8
Markaziy va G'arbiy Osiyo	4,5
Arab mintaqasi	60,8
Sharqiy Osiyo	33,4
Janubi-Sharqiy Osiyo	39,2
Janubiy Osiyo	2,8

Manba: Gallotti, M. Migrant Domestic Workers across the World: Global and Regional Estimates; International Labour Organization: Geneva, Switzerland, 2015; pp. 2,3.

Ayollar migratsiyasining tarixi ko'p asrlar davomida o'zgarib, rivojlanib kelgan. Bugungi kunda ayollar migratsiyasi yanada muhim rol o'ynayapti va ko'plab iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Ayollarning ko'chib yurishi faqatgina oilalar farovonligi uchun emas, balki global miqyosda yangi imkoniyatlar yaratish uchun ham muhimdir.

Dunyo mintaqalari bo'ylab jami migrantlar tarkibida ayol migrant uy xizmatchilarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Arab mintaqasi (60,8%) hamda eng quyi ko'rsatkich Sharqiy Yevropa mintaqasi (0,8%) ga to'g'ri keladi (1-jadval).

Boshqa mamlakatlarda mehnat qilayotgan O'zbeklar, jami migrantlarning 23% dan ortig'ini tashkil etdi. Migratsiya siyosati tufayli aholi orasida xorijga ketish istagida monomarkazlarga, til o'qitish markazlariga, xususiy bandlik agentstvalariga murojaat qilayotgan ayollar soni ortmoqda.

O'zbekiston tashqi ishlar migratsiya agentligi tomonidan Janubiy Koreya Respublikasiga, Germaniya federatsiyasiga hamda Turkiya davlatiga hamshira diplomiga ega ayollarni uy sharoitida qariyalarni parvarishlash uchun ish o'rinlari bo'yicha hujjatlar imzolandi.

Shu bilan birga, migrant ayollar odam savdosi qurboni bo'lib zamonaviy qullik shakllaridan tortib, maishiy ekspluatatsiyaga qadar turli xil xavf-xatarlarga duchor bo'lmoqdalar, ba'zan uy ishchi xizmatchilariga yetkazilgan zarar odamlar uchun qonuniy migratsiya to'liq ishlamayotganidan darak beradi.

Yakuniy qism. Ayollar migratsiyasining tarixi ko'p asrlar davomida o'zgarib, rivojlanib kelgan. Bugungi kunda ayollar migratsiyasi yanada muhim rol o'ynayapti va ko'plab iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Ayollarning ko'chib yurishi faqatgina oilalar farovonligi uchun emas, balki global miqyosda yangi imkoniyatlar yaratish uchun ham muhimdir.

Odam savdosi nafaqat bitta ishchiga, shuningdek, milliy xavfsizlik va barqarorlikka putur yetkazadi. Mehnat migratsiyasi xavfini kamaytirish zarurati mavjud, buning uchun muhojirlarni himoya qilishga qaratilgan strategiya va chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

O'zbekistonning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib ayollar uy xizmati mehnat migratsiyasini takomillashtirish lozim, o'zbek ayolini tajribasi oila va bolalarga g'amxo'rlik qilishi azaldan davom etib kelayotgan qadriyatlardan biri sifatida e'tirof etilishi va bu soha rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholini va oliy ta'lim bitiruvchilarni munosib ish bilan ta'minlash davlatimiz YIMni oshirish hamda inson kapitalini rivojlantirish uchun qonuniy migratsiyani rivojlantirish va xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish muhim hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, aksariyat o'rtadan quyi bo'lgan hamda quyi daromadli mamlakatlarda ayol migrantlar mehnat bozorida dikriminatsiya, ishdagi ekspluatatsiya va zo'ravonlik, sog'liqni saqlash va ta'limdan foydalanishdagi to'siqlar, sudlovdagi adolatsizliklar

kabi muammolarga duch kech kelishda davom etmoqdalar. Odam savdosi qurbonlari ichida hali ham ayollarning ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Xususan, odam savdosi qurbonlarining 65% ini ayollar, ya'ni 46% ini kattalar va 19% ini qizlar tashkil qiladi.

Katta yoshdagi qurbon ayollarning asosiy qismi Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo mintaqalarida foliyat ko'rsatsa, qiz bolalarning qurbon bo'lishi ko'proq Osiyo mintaqasida uchraydi. Yuqoridagi holatlar ayollar mehnat migratsiyasi muammosini kun tartibining dolzarb masalasi sifatida qolishini va mazkur jarayon bilan bog'liq muammolarning oldini olishda xalqaro va mintaqaviy hamkorlik muhim ahamiyat kasb etishini yana bir bora namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rabiye B.B. O'zbekistonlik ayollar migratsiyasi. (Rossiya federatsiyasi misolida) *Economy and Innovation* ISSN: 2545-0573 Volume: 34/2023.
2. Paola Degani *Front. Hum. Dyn.*, 17 May 2022 *Sec. Dynamics of Migration and Im) Mobility* Volume 4-2022 <https://doi.org/10.3389/fhumd.2022.818351>
3. <https://www.referat911.ru/Ekonomicheskaya-geografiya/trudovaya-migratsiya-zhenshhin/54679-1474078-place2.html>
4. Михайленко Н.В. Международная миграция труда и ее влияние на национальные экономики// *Управление*. 2019. № 3. – С. 127–132.
5. Kodoth, P. *In the Shadow of the State: The Recruitment and Migration of South Indian Women as Domestic Workers to the Middle East*; International Labour Organisation: Geneva, Switzerland, 2020.; Bisong, A. *Regulating Recruitment and Protection of African Migrant Workers in the Gulf and the Middle East*. The European Centre for Development Policy Management (ECDPM). 2021. Available online: <https://ecdpm.org/wp-content/uploads/Regional-Solutions-Regulating-Recruitment-Protection-African-Migrant-Workers-Gulf-Middle-East-ECDPM-Discussion-Paper-292-2020.pdf> (accessed on 12 January 2022).
6. <https://demografiya.uz/uz/ilmiiy-tahliliy-axborotnoma/ayollar-mehnat-migratsiyasining-asosiy-oqimlari-va-zamonaviy-yo-nalishlari/>